

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

8-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Baxranov Sherzod

O‘ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O‘RNI	10-16
---	-------

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI	17-21
--	-------

Sattarova Marhabo Mamatovna

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA‘SIRI	22-30
--	-------

Raxmatov Mirjon

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN	31-38
---	-------

To‘xtasinov Mira‘zam

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI	39-42
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	43-48
---	-------

Azgarov Abdumutalib

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO‘LLANILISHI HOLATI TAHLILI	49-56
---	-------

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE	57-60
--	-------

Otabekov Javdod

GO‘SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGI” IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI	61-68
--	-------

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASH	69-74
--	-------

Uralov Temur Boxodir o‘g‘li

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	75-81
--	-------

Samandarov Og‘abek

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI	82-86
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yuldashev Rustam Daniyrovich</i> YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	87-93
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L	94-98
<i>Berdikulova Surayyo Aslamovna</i> IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI	99-104
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI	105-113
<i>Yarbaev Xasan Xazratqulovich</i> JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH: MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL	114-118
<i>Maxsudjonov Kamronjon</i> MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA TA'SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI	119-123
<i>Qo'chqarov Oybek G'ulomovich</i> INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV	124-128
<i>Otaqulov Elyor Madiyrovich</i> EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI	129-136
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR	137-141

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Niyazov Ravshan Turakulovich</i> SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI	142-148
<i>Yunusova Xilola Ravshan qizi</i> KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI "V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA	149-154
<i>Absalamova Gulmira Sharifovna</i> LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA	155-158
<i>Dadajanova Aziza Karimullayevna</i> THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION: A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE	159-170
<i>Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna</i> YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA) ERTAGI MISOLIDA	171-175
<i>Babajanova Iqbol Salomaddinovna</i> SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY	190-195

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI	207-212
<i>G'ofurova Dilafuz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	224-228
<i>Ходжаева Шурин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILY YONDASHUVLAR	240-250
<i>Asadov Shahridin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK	270-278

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI	279-285
--	---------

<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN	303-309
<i>Berdiyorova Nilufar Berdiyori qizi</i> INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	310-314
<i>Hamidov Sherhali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT"	337-341

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

PRAGMATIC FEATURES OF PERSONAL NAMES

Babajanova Iqbol Salomaddinovna

Independent Researcher,
Navoi State University

Abstract. This article presents reflections on the development of linguistics with a particular focus on personal names and their pragmatic features. It discusses the emergence of pragmatics as an independent field within linguistics and explores various debates surrounding this process. The study also analyzes the approaches of prominent linguists to the development of pragmatics and highlights the significance of these perspectives in understanding the pragmatic dimensions of personal names.

Keywords: linguistics, pragmatics, personal names, English language, approach, Uzbek language, pragmalinguistics.

SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Babajanova Iqbol Salomaddinovna

Navoiy davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: iqbolsalomadinnovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning rivojlanishida shaxs otlari va uning pragmatik xususiyatlari borasida fikr mulohazalar yuritilgan. Pragmatikaning mustaqil soha sifatida tilshunoslikka kirib kelishi borasida bahs munozara yuritilgan. Pragmatika sohasining rivojlanishida tilshunos olimlarning yondashuvlari va uning ahamiyati borasida tahlillar berib o'tilgandir.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, pragmatika, shaxs otlari, ingliz tili, yondashuv, o'zbek tili, pragmatolingvistika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N27>

KIRISH

Tilshunoslikda pragmatika mustaqil yo'nalish sifatida XX asrning 60-70-yillarida kirib kela boshladi. 1971-yilda Dordrext shahrida o'tkazilgan "Tabiiy tillar pragmatikasi" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ushbu yo'nalishning metodologik asoslariga alohida e'tibor qaratildi. Konferensiya materiallari to'plamiga "So'z boshi" yozgan Tell-Aviv universiteti professori M. Bar-Hillel anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan tabiiy til vositasida olib boriladigan muloqotning pragmatik jihatlari ham sintaktik va semantik jihatlari qatorida lingvistik nazariya doirasida tahlil qilinishi zarur, degan qarashlarni ilgari surdi[1;231].

Ushbu qarashlarning ilgari surilishi jahon tilshunosligida pragmatika sohasining keyingi taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunga kelib pragmatika tushunchasi ko'plab tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda, ammo uning mazmun-mohiyati, ilmiy asoslari, nazariy negizlari haqida aniq tasavvur berilmaydi. Shu sababli lisoniy birliklarning pragmatik xususiyatlari va uning tamoyillari haqida batafsil ochib berish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1977-yilda Vena shahrida bo‘lib o‘tgan tilshunoslarning XII xalqaro kongressida J. Layons ushbu savollarga javob berishga harakat qilib, pragmatikaning predmeti haqida shunday ta‘rif beradi: “Pragmatika – bu tinglovchiga axborotni aynan so‘zlovchining maqsadiga muvofiq tarzda qabul qildirish uchun lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qanday qo‘llanilishini tavsiflovchi fan”[2;447]. Bu esa, pragmatika shaxslararo muloqotda til vositalarining tutgan o‘rnini aniqlash bilan shug‘ullanadi deganidir. Ta‘rif asosida til vositasida amalga oshiriladigan nutqiy harakatning maqsadi va unga erishish yo‘llari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yotadi. “Sabab–motiv–maqsad” zanjiri esa nutqiy faoliyatning shakllanishi va voqelanishini belgilaydi.

Xuddi shu nuqtai nazariga ko‘ra A. Kasher ham pragmalingsvistik tahlilning asosiy vazifasini shunday izohlaydi: “Pragmatikaning vazifasi — ma‘lum kommunikativ maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishga xizmat qiladigan insoniy qobiliyatlar tizimini ochib berish va ularni izohlashdan iborat”[3;144-154].

Turli olimlar tomonidan berilgan pragmatika ta‘riflarini qiyosiy tahlil qilganimizda, ularning barchasida ushbu sohaning predmeti haqida umumiy tasavvur mavjudligini ko‘rish mumkin. Biroq ayrim ta‘riflar yetarli darajada to‘laqonli emasligi bilan, boshqalari esa o‘zaro ustma-ust kelgan mazmunlarni muayyan darajada “soya” ostida qoldirayotganligi bilan farqlanadi. Shu sababli pragmatikaning ilmiy-metodologik asoslarini aniqlashtirish, u bilan bog‘liq tushunchalarni izchil va aniq tarzda bayon etish masalasi bugungi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Pragmatika sohasini har tomonlama yoritish, uni turli yondashuvlar orqali tahlil etish orqali o‘rganilayotgan hodisaning yanada to‘liq va tizimli manzarasini tasvirlash mumkin, degan fikr tobora mustahkamlanmoqda. Ana shu maqsadda biz pragmalingsvistika bo‘yicha adabiyotlarda berilgan ayrim muhim ta‘riflarni eslatib o‘tish va ularni qisqacha izohlashni lozim topdik. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ko‘plab amerikalik tilshunoslar, jumladan pragmatika bilan shug‘ullanuvchilar ham, ko‘pincha N. Chomskiyning lisoniy nazariyasiga — xususan, “lisoniy kompetensiya” va “performans” (ya‘ni, nutqiy ijro) o‘rtasidagi tafovutga tayanadilar[4;61]. S. Cattsning nutqiy harakatlar mazmuni — propozitsiya va illokutsiya (ya‘ni, kommunikativ maqsad) o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan ishlari ham ayni shu an‘anaga asoslanadi.

S. Catts pragmatika fanining predmeti sifatida grammatika va nutqiy faoliyat o‘rtasidagi munosabatni quyidagicha izohlaydi: “Grammatika — bu gap strukturasi o‘id ta‘limotdir[5; 1273-1274]. Pragmatika esa, aksincha, lisoniy tuzilmalarni shakllantirish yoki ularning grammatik jihatlarni o‘rganish bilan emas, balki bu tuzilmalarni matndagi kontekst asosida so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan oqilona qo‘llanilishini ta‘minlovchi jarayonlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Shunday ekan, pragmatika — bu nutqiy performans nazariyasining muhim tarkibiy qismidir”.

Biroq pragmatikani faqat nutqiy ijro bilan chegaralash, uni tor doiraga qamab qo‘yish, nazariyani umummilliy til tizimidan ajratib qo‘yishga olib keladi. Holbuki, har qanday nutqiy faoliyat sotsial muhit, kommunikativ holat va kontekst bilan uzviy bog‘liq. Til birliklarining mazmuni aynan shu kontekstda shakllanadi va ifodalanadi. S. Catts misol sifatida keltirgan “quyon – quyoncha” yoki “it – kuchukcha” kabi juftliklarda ikkinchi so‘zlarning bolalar tomonidan yoki bolalarga nisbatan ishlatilishi ularning semantik qiymatini — erkalash,

kichraytirish, yaqinlikni — aniqlaydi. Bunday ma'nolar leksik-morfologik ifoda vositalari orqali berilgan bo'lsa-da, ularning pragmatik xarakteri shubhasiz.

Germaniya tilshunoslik maktabi vakillari, jumladan matn tilshunosligi bo'yicha yetakchi olimlardan biri. R. Shmidt, pragmatikani tilshunoslikning umumlashtiruvchi sohasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, "pragmatika" va "matn tilshunosligi" tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi va yagona nazariy tushuncha bo'lib, ular birgalikda lisoniy muloqotning umumiy nazariyasini shakllantiradi. Bu nazariya esa matn grammatikasi, an'anaviy grammatika va kommunikativ tilshunoslikning bir butun tizimi sifatida qaraydi[6; 326].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shu bilan birga, pragmatika bo'yicha ta'riflar soni ortgani sari ularning orasida zidliklar ham ko'paymoqda. So'nggi 60–70 yillik ilmiy izlanishlar natijasida pragmatikaning predmeti va doirasi shu darajada kengayib ketdiki, uni yagona nazariy doiraga solish, aniq chegaralarini belgilash tobora murakkablashmoqda. Bunga sabab pragmatika taraqqiyotiga nafaqat lingvistik, balki kognitologiya, madaniy antropologiya, mantiq, sotsiologiya, falsafa, faoliyat nazariyasi kabi boshqa fanlar ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, matn nazariyasi kabi sohalar bilan uzviy aloqadorligi uni yanada ko'p qatlamli ilmiy yo'nalishga aylantirmoqda.

Pragmatikaning keng talqini esa insonning maqsadli nutqiy faoliyat turlarini ham o'z doirasiga kiritishni taqozo etadi. Shunday qilib, pragmatika ikki qutbli talqinga ega: tor nazariy yondashuv va keng, integrativ yondashuv. Bugungi kunda bu ikki yondashuv bir-birini to'ldirib, izohlayotgani kuzatilmoqda. Turli tadqiqotlarda pragmatika quyidagi shakllarda talqin etiladi: u — tilning qo'llanilishi bilan shug'ullanuvchi fan; nutqiy kontekstda faoliyatga kirishgan til tizimini o'rganuvchi yo'nalish; nutq aktlarini tavsiflovchi nazariya; og'zaki muloqot (konversatsiya)ni tahlil qiluvchi nazariya; shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi til vositalarini o'rganuvchi fan va hokazo.

Niderlandiyalik olim T.A. van Deyk va uning izdoshlari esa pragmatikaning vazifasini nutqiy strukturaviy birliklarning muayyan muloqot vaziyatida "yaroqliligini" aniqlashdan iborat deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, pragmatikaning asosiy maqsadi — nutqiy aktlarning kognitiv mazmunini yaratish, ularni eslab qolish, ijtimoiy-madaniy kontekstda til tizimidan maqsadli foydalanish va shu asosda kommunikativ modelni shakllantirishdan iborat[7; 308].

Xulosa qilganda, pragmatikaning predmeti va doirasini belgilashga oid izlanishlar hali ham davom etmoqda. Bu boradagi ta'riflar ko'p bo'lishiga qaramay, ularning hech biri sohaning barcha asosiy tushunchalarini o'zida to'liq mujassam eta olmaydi. Biroq bu, pragmatika fanining istiqboli yo'q, degani emas. Aksincha, u hali o'z "mevalarini" berish arafasida turibdi: etnopragsmatika, sotsiopragsmatika, qiyosiy pragmatika, madaniyatlararo pragmatika kabi sohalarning rivojlanishi, til haqidagi nazariy qarashlarni yangilash bilan birga, til o'qitish metodikasini boyitishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, pragmatik lingvistik bilimlar xalqaro aloqalar, ishbilarmonlik muloqoti, madaniyatlararo muomala kabi amaliy sohalarda ham muhim o'rin egallaydi. Shunday ekan, pragmatika – bu inson lisoniy faoliyatini chuqur va har tomonlama o'rganuvchi istiqbolli ilmiy yo'nalish bo'lib, bugun u tilshunoslikning mustahkam poydevorli tarmog'iga aylanmoqda.

Shaxs otlarining pragmatik xususiyatlari ularning nutq ishtirokchilari orasidagi munosabatni ifodalash, kommunikativ niyatni kuchaytirish, hamda samarali muloqotni tashkil etishdagi rolini ochib beradi.

Shaxs otlari nafaqat grammatika doirasidagi birliklar, balki pragmatik jihatdan kommunikativ vazifa bajaruvchi vositalar sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Pragmatika til birliklarining konkret nutq vaziyatlarida qanday ma'noni anglatishi, qanday ijtimoiy funksiyani bajarishi va kommunikatsiya jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Shu nuqtai nazardan, shaxs otlarini faqat morfologik yoki sintaktik birlik sifatida emas, balki kommunikativ, ijtimoiy va madaniy kontekstlarda o'zgaruvchan birlik sifatida ko'rib chiqish zarur. Shaxs otlari deiktik birliklar sirasiga kiradi. Deiksis — bu til birliklarining kontekstga bog'liqligini ifodalovchi xususiyat bo'lib, u nutqdagi “men”, “sen”, “biz”, “u” kabi olmoshlarning ma'nosini faqat gapiruvchi, tinglovchi va nutq holatiga qarab aniqlash mumkinligini bildiradi. Masalan: Men ertaga boraman. Bu jumlada “men” olmoshi kimligini faqat gapiruvchining shaxsiga qarab aniqlash mumkin. Bu holat “shaxsiy deiksis” deyiladi. Shuningdek, o'zbek tilida “sen” va “siz” olmoshlarining ishlatilishi faqat grammatik tafovut emas, balki ijtimoiy va madaniy ma'lumot yuklangan pragmatik vosita hisoblanadi. Gapiruvchining tinglovchiga bo'lgan munosabati (yoshi, maqomi, rasmiylik darajasi) ushbu tanlovni belgilaydi.

Shaxs otlari ijtimoiy munosabatni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi “sen” va “siz” farqi ingliz tilidagi “you” olmoshiga nisbatan kuchliroq ijtimoiy yuklamaga ega. Bu farq shaxs otlari orqali hurmat, yaqinlik, masofa, do'stlik va boshqa ijtimoiy aloqalarning aniqlanishiga olib keladi. Ingliz tilida esa bu turdagi tafovutlar intonatsiya, kontekst, yoki qisqa sarlavhalar (Mr., Sir, Dear) orqali ifodalanadi.

Shaxs otlari – bu asosan birinchi (men/biz), ikkinchi (sen/siz) va uchinchi shaxs (u/ular) ko'rsatkichlari orqali nutqdagi ishtirokchilar o'rtasidagi pozitsiyani belgilovchi vositalardir. Bu vositalar orqali kim so'zlayotgani, kimga murojaat qilinayotgani va kim haqida gap ketayotgani belgilanadi: *Men sizga bir narsa aytmogchiman.* (Nutq egasi va tinglovchi ochiq belgilanmoqda). *U meni ko'rdi.* (Nutq subyekti va obyekt o'zaro qarama-qarshi qo'yilgan). Shunday qilib, shaxs otlari pragmatik deiksis (nutqdagi nuqtai nazar) vositasi sifatida xizmat qiladi.

O'zbek tilida shaxs otlari, ayniqsa ikkinchi shaxs olmoshlari (*sen/siz*) orqali muloqotdagi ijtimoiy masofa, hurmat, do'stona yoki rasmiy munosabat ifodalanadi. Masalan: Ko'plab tillarda, xususan, o'zbek tilida shaxs otlarining ishlatilishi ijtimoiy maqom, hurmat va yaqinlik darajasi bilan chambarchas bog'liq. Masalan: “Sen” va “Siz” o'rtasidagi farq nutq etikasining muhim unsuri hisoblanadi.

- O'zbek tilida “u kishi”, “ular” shakllari ko'pincha hurmat ma'nosida ko'plikda ishlatiladi, bu esa pragmatik ehtirom ifodasidir.

Ingliz tilida bunday ijtimoiy-pragmatik farqlanish uncha aniq emas, biroq *Mr., Mrs., Sir, Madam* kabi murojaat shakllari yoki nomlar orqali rasmiylik yoki hurmat ifodalanadi.

Pragmatik implicatura shaxs otlari orqali bilvosita ma'no hosil qilish imkonini beradi. Masalan:

- “*Ular yana kech qoldi.*” – bu gap grammatik jihatdan oddiy xabar bo'lsa-da, pragmatik nuqtai nazardan tanbeh, shikoyat yoki kinoya bo'lishi mumkin.

Shaxs otlari kontekstdagi intonatsiya, vaziyat, fe'lining modalligi bilan birga ishlatilganda yashirin nutq niyatlarini anglatadi.

Shaxs otlarining diskursiv vazifasi: Shaxs otlari matn va nutq davomida bog'liqlikni hosil qiladi. Gaplar orasidagi aloqani ta'minlaydi:

- “*Ali maktabga bordi. U darsga kechikdi.*”

Bu yerda “u” shaxs otining referensial funksiyasi mavjud bo‘lib, u oldingi gapdagi subyektga ishora qiladi.

Shaxs otlarining pragmatik xususiyatlari ularning sintaktik yoki morfologik strukturasi bilan emas, balki nutqiy holat, vaziyat, muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar orqali aniqlanadi. Ular tilning interaktiv va ijtimoiy tabiatini ifodalovchi muhim pragmatik birliklardir. Shaxs otlari yordamida nafaqat shaxslar ko‘rsatiladi, balki ijtimoiy masofa, hurmat, ishonch, ba‘zan esa nazorat yoki tanbeh kabi ma‘naviy holatlar ham anglashiladi. Demak, shaxs otlari – bu grammatikaning chegarasidan chiqib, tilning nutqiy, madaniy va ijtimoiy qatlamlariga kirib boruvchi pragmatik markerlardir.

XULOSA

Shaxs otlarining pragmatik xususiyatlari tilshunoslikda kommunikativ jarayonning muhim pragmatik vositasi sifatida qaraladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shaxs otlari nafaqat referensial (ko‘rsatish) vazifani, balki muloqotdagi roldan, ijtimoiy maqomdan, psixologik holatdan va madaniy kontekstdan kelib chiqadigan kommunikativ niyat va munosabatlar mazmunini ham ifodalaydi. Ayniqsa, 1-, 2- va 3-shaxs otlarining qo‘llanilishidagi variativlik muloqot ishtirokchilari orasidagi ijtimoiy masofa, ruxsatlilik darajasi, nutq etiketi va nazokat me‘yorlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Pragmatik tahlil shuni ko‘rsatadiki, shaxs otlarining kontekstga xos qo‘llanilishi orqali muallif yoki gapiruvchi o‘z nutqiga samarali ta‘sirchanlik, subyektiv baho, yoki ixtiyoriy masofa kiritadi. Bu esa tilning faqat grammatik emas, balki diskursiv va pragmatik funksiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shunday qilib, shaxs otlarining pragmatik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikda kommunikativ strategiyalar, sotsiopragmatika, hamda madaniy-lisoniy tafovutlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa muloqot samaradorligini oshirish va nutq faoliyatini keng qamrovda o‘rganishda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bar Hillel. Pragmatics of natural languages. Dordrecht, Holland: D.Reidel. 1971. P-231
2. Layons. J. Proceedings of the twelfth International Congress of Linguists, Vienna, August 28 - September 2, 1977
3. Kasher, A. 1998. ‘Postscript’, in A. Kasher (ed.), Pragmatics: critical concepts, London: Routledge, pp.144-54.
4. Chomsky, N. 1995. “Language and nature”. Mind 104 (413): p 1–61
5. Catts, S. V. (2002a). Disturbed communication in schizophrenia: the role of poor pragmatics and poor mind-reading. Psychol. Med. 32, P 1273–1284.
6. Schmidt, R., & Frota, S. (1986). Developing basic conversational ability in a second language: A case study of an adult learner of Portuguese. In R. Day (Ed.), Talking to learn: Conversation in second language acquisition. Rowley, MA: Newbury House, pp. 137-326.
7. Van Deyk, T.A. Язык. познание. коммуникация / T.A.Van Deyk. – В.: BGK im. I.A. Boduena de Kurtene, 2000. - 308 p.
8. Bakhtiyor Mengliyev, Guli Toirova, Javlon Ibragimov, and Munira Mengliyeva The necessity of Pareto principle in environmental studies. E3S Web of Conferences 587, 02018 (2024) GreenEnergy 2024 –P. 1-8. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202458702018>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).